


## TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2019 yil yanvar-iyun)*


2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2249,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 139.2%ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 940,6 mln. AQSH dollarga (151.4%ga oshgan) va import hajmi 1308,8 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 131,6%) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 368,2mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

**Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi**  
(*mln. AQSH dollarari*)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xomashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

### **Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan, %)**



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning iyun oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar may oyiga nisbatan 34,3 mln. AQSH dollarga kamroq eksport qilindi va 135,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 225,2 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa may oyiga nisbatan 9,2 mln. AQSH dollariga kamroqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga to`g`ri keldi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.


**Viloyat tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega davlatlar**

					(mln. AQSH dolları)
Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %	
Qozog`iston	451,9	97,8	354,1	20,09	
Rossiya	392,8	121,1	271,7	17,46	
Xitoy	392,0	165,6	226,4	17,43	
Turkiya	388,2	331,4	56,8	17,26	
Koreya Respublikasi	92,5	6,2	86,4	4,11	
BAA	43,0	42,8	0,2	1,91	
Germaniya	38,8	0,8	38,0	1,73	
Tojikiston	35,4	11,8	23,6	1,58	
Qirg`iston	34,8	24,3	10,5	1,55	
Braziliya	34,0	0,0	34,0	1,51	
Litva	31,8	0,1	31,7	1,41	
Afg`oniston	31,6	31,3	0,3	1,41	
Ukraina	31,4	21,1	10,3	1,40	
Belarusiya	28,8	6,8	22,0	1,28	
Angliya	25,8	25,2	0,6	1,15	
Italiya	25,2	1,4	23,8	1,12	
Niderlandiya	14,6	9,4	5,2	0,65	
Eron	13,6	6,9	6,7	0,61	
Hindiston	13,5	1,1	12,4	0,60	
Malayziya	12,2	0,2	12,0	0,54	

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,9 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43,8 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 57,5 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 56,1 %ga yoki 1,4 % punktga kamaydi.


### **2019 yil yanvar-iyun oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)**



## EKSPORT

2019 yil yanvar-iyun oylarida eksport hajmi 940,6 mln. AQSH dollarga (151,4 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (60,8 %), boshqa turdag'i tovarlar (14,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,3 %), paxta tolasi (11,5 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,5%) shuningdek, mashina va uskunalar (2,3 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi**  
(mln.AQSH dollar'i)




### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %
Eksport	940.6	151.4	100,0	290.8	172.4	100,0	649.8	143.5	100,0
Paxta tolesi	107.9	316.7	11.5	0,1	10,4	0,0	107,8	327.0	16.6
Oziq-ovqat mahsulotlari	87.2	125.7	9.3	66.5	157.8	22,8	20.8	76.1	3.2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	14.1	66.2	1,5	9.5	93.4	3,3	4.6	41.5	0.7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,00	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	571.4	149.3	60.8	111.6	242.1	38,4	459.8	136.6	70.8
Mashina va asbob - uskunalar	21.9	222.1	2,3	8.5	281.4	2,9	13,4	196.0	2.1
Xizmatlar	6.1	111.8	0,6	1,4	232.3	0,5	4.7	96.9	0.7
Boshqalar	132.0	133.7	14,0	93.3	142.1	32,1	38.7	117.0	6,0

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, paxta tolasiga to`g`ri keldi.

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi  
(o'tgan yilga nisbatan, %)**




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyun oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar may oyiga nisbatan 20,2 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 6,1 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6%ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,8%ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning iyun oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, may oyiga nisbatan 34,3 mln. AQSH dollariga kam eksport qilindi va 135,5 mln. AQSH dollarini, shuningdek, xizmatlar eksporti esa 1,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi**  
*(oylar kesimida, mln. AQSH dolları)*



**Viloyat eksportida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi**  
*(2019 yil yanvar-iyun, %)*



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 52,8 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.


### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-iyun oylarida jami 62,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 66,3 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 50,7%ga oshgan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 50,7 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 34,7mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,1 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 9,6 ming tonna meva va rezavorlar 23,4 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 ming tonnaga kamroqdir.

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-iyun 2019 y.)




MEVA VA REZAVORLAR	UZUM	QOVUN VA TARVUZ	YER YONGO'Q	SABZAVOTLAR
9,6 ming.t 23,4 mln. AQSH. dollarisi	0,9 ming.t 7,1 mln. AQSH. dollarisi	0,5 ming.t 0,4 mln. AQSH. dollarisi	0,4 ming.t 0,6 mln. AQSH. dollarisi	50,7 ming. t 34,7 mln. AQSH. dollarisi

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 58,2 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 42,3 %ga oshgan).

## **IMPORT**

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 1308.8 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 131.6%) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (31,7%), oziq-ovqat mahsulotlari (16,8%), qora va rangli metallar (15.5%) hamda boshqa mahsulotlar (25.7%) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi  
(mln.AQSH dollar)**



- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar


- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

**Import tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	1308.8	131.6	100,0	696.6	134,5	100,0	612.2	128,4	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	219.8	285.0	16.8	135.9	262.5	19.5	83.9	330.9	13.7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	102.1	158,0	7.8	33.9	241.9	4.9	68.2	134.8	11,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	16.8	107,5	1.3	15.8	105.9	2.3	1.0	140.2	0,2
Qora va rangli metallar	203.2	106.7	15.5	168.5	112.5	24.2	34.7	85.5	5.7
Mashina va asbob-uskunalar	414.7	96.7	31.7	65.6	36.7	9.4	349.1	139.6	57,0
Xizmatlar	15.3	21.1	1.2	4.0	169.8	0,6	11.3	16.1	1.8
Boshqalar	336.8	231.3	25.7	272.8	256.7	39.2	64.0	162,7	10,5

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.


**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish  
sur'atlari dinamikasi  
(o'tgan yilga nisbatan, %)**



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyun oyida import qilingan tovar va xizmatlar may oyiga nisbatan 3,9 %ga kamaygan.


Xizmatlar importi hajmi 15,3 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,2 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,9%ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi**  
 (oylar kesimida, mln. AQSH dollar)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar iyun oyida may oyiga nisbatan 9,1 mln. AQSH dollarga kam import qilindi va 1308,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi**  
 (2019 yil yanvar-iyun, %)



**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning eksport-importi  
(2019 yil yanvar- iyun holatiga)**

	<b>Eksport-import qilgan korxonalar soni</b>	<b>mln. AQSH doll.</b>	<b>O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz xisobida</b>
<b>Eksport</b>	95	113,7	98,5
<b>Import</b>	321	363,5	163,7

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**




2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatga 85 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlarining jami import hajmi 1033,4 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 79,0 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rinnegallashlari uchun zamin yaratmoqda.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo`limi  
Tel.:71-230-86-59